



## MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEKISTON SAN'ATI

**Oydinov Sh.B**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola, O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi tasviriy va amaliy san'atni ravnaqi haqida yozilgan. Unda davlatimiz tamonidan san'atni taraqqiy etishiga bo'lgan beqiyos e'tibori va mafkuraviy nazoratni yo'q qilinishi natijasida san'atda ro'y bergan tub ijobiy o'zgarishlar yoritilgan. Shuningdek turli uslub va yunalishlarning o'ziga xos rivojlanishi, rassomlarning rang-barang ijod olami haqida ma'lumotlar berilgan. Hamda ijodkorlarning milliy tarixga murojati, me'morchilik va buniyodkorlik ishlarini yuqori darajada yuksalishi haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqillik davri, O'zbekiston, taraqqiyot, mafkuraviy nazorat, tasviriy san'at, amaliy san'at, haykaltaroshlik, rangtasvir san'ati, tarixiy shaxslar, "Amir Temur portreti", kompozisiya, miniatyura, natyurmort, grafika me'morchilik, osmon o'par binolar, buniyodkorlik, tinchlik, farovonlik.

**Аннотация:** Данная научная статья посвящена развитию изобразительного и прикладного искусства Узбекистана в годы независимости. В ней освещается огромное внимание, уделяемое государством развитию искусства, а также положительные кардинальные изменения, произошедшие в результате устранения идеологического контроля. Также представлены сведения о самобытном развитии различных стилей и направлений, о многогранном творческом мире художников. Кроме того, изложены размышления о стремлении творцов к национальной истории, о высоком уровне развития архитектуры и градостроительства.

**Ключевые слова:** Период независимости, Узбекистан, развитие, идеологический контроль, изобразительное искусство, прикладное искусство, скульптура, живопись, исторические личности, «Портрет Амира Темура», композиция, миниатюра, натюрморт, графика, архитектура, небоскрёбы, строительство, мир, благополучие.

**Abstract:** This scientific article deals with the development of fine and applied arts in Uzbekistan during the years of independence. It highlights the fundamental positive changes that have occurred in art as a result of the unprecedented attention paid by our state to the development of art and the elimination of ideological control. It also provides information about the specific development of various styles and directions, the colourful creative world of artists. It also presents ideas and observations about the appeal of artists to national history, the high level of architectural and creative work.

**Keywords:** Independence period, Uzbekistan, development, ideological control, fine arts, applied arts, sculpture, painting, historical figures, "Portrait of Amir Temur",



*composition, miniature, still life, graphic architecture, skyscrapers, creativity, peace, prosperity.*

Mustaqillikga erishgan yillarimizdanoq Vatanimiz tarixida ilm fan, san'at, madaniyat, adabiyot, ma'naviyat va ma'rifatga bo'lgan e'tibor oshdi. Natijada buniyodkorlik ishlariga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimizni anglay boshladik. Ulg'ayib kelayotgan yoshlarimiz esa buyuk yurt farzandlari ekanliklaridan xabordor bo'lib faxrlanmoqdalar. Vatanimiz tarixida, o'chmas iz qoldirgan insonlar – Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Xo'ja Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'iloni, Amir Temur kabilarni nomlari qayta tiklandi. Shu kabi o'zbek mutafakkirlari – Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandi, Zaxriddin Muhammad Boburlarning nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda. Ularning ijodini va boy madaniy merosini o'rganmoqdamiz.

Mustaqillikning dastlabki yillardan Vatanimizning mo'yqalam sohiblari, amaliy san'at ustalari va haykaltaroshlar ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, tasviriy va amaliy san'atimizni yanada kengroq namoyish eta boshladilar. "O'zbek san'atining yangi bosqichi mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Huquq va erkinligini qo'liga olgan O'zbekiston o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishini belgilab, yangi iqtisodiy va ijtimoiy dasturni ishlab chiqdi. Jahon hamjamiyatida mavqeyini belgilab, xalqaro aloqalarni mustahkamladi"<sup>19</sup>. 1997-yili O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining tashkil etilishi bu borada madaniy rivojlanishning o'ziga xos yangi davrini boshlab berdi.

Mamlakatimiz bugungi kunda har tomonlama jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Yurtimizda bo'layotgan taraqqiyot jarayoni ilm-fan va madaniyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi tasviriy san'at sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. Tasviriy san'atning rivojlanishiga mamlakatimizda yanada yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi, 2020 yil 1-apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-sonli qarorlari bunga yaqqol misol bo'la oladi

Mustaqillik yillarida rassomlarimiz turfa-xil mavzularda ijod qilib kelmoqdalar. Ular tasviriy san'atning tur va janrlari orqali, tabiatimizda yetishtiralayotgan turli xil mevalar, poliz ekinlari, turli xil noz-ne'matlarni, o'l kamizning bepayonligi va uning go'zalligini, tarixiy me'morchilik yodgorliklarini, kishilar hayoti, turmush tarzi kabi ko'plab ko'rinishlarni o'z asarlarida to'laqonli rang va chiziqlar orqali tasvirlab kelmoqdalar.

<sup>19</sup> N. Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyat nashriyoti", 2007.,202-bet



Bu davrda rangtasvir san'ati jadal rivojlanib yetakchi o'rinni egalladi. Bu borada rassomlar yangi izlanishlar olib bordilar. Tarixiy mavzudagi asarlarda asosan realistik ko'rinishlar o'z aksini topa boshladi. Birinchi bor rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika san'atida xalq qahramonlari Alpomish, Spitamen, Goro'g'li siymolari ana shu mustaqillik yillarda yaratildi. Amir Temur hukmronlik qilgan davri malikalari qiyofasi tasviriy san'atda o'z aksini topdi. Milliy mavzuga e'tiborning kuchayishi tarixiy janr rivojiga katta ta'sir etdi. Temur va temuriylar davriga atab mustaqillik yillarda qator kompozitsiyalar vujudga keldi. Bu borada Malik Nabihev, Chingiz Ahmarov, Ne'mat Qo'ziboyev, Qutlug' Basharov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Sa'dulla Abdullayev, Erkaboy Masharipov, Alisher Aliqulov, Ortiqali Qazoqov va boshqa shu kabi mo'yqalam sohiblarini to'laqonli asarlar yaratdilar.

Mustaqillik yillari mafkuraviy nazoratni yo'q qilinishi ijod erkinligini taminladi. Ijod erkinligi esa tasviriy san'atda o'ziga xos izlanishlar, turli uslub va yo'nalishlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Realistik san'at va avangard-modemizm san'atlarining o'zaro bir-biriga ta'siri, raqobati kuchaydi. Rassomlarning milliy tarixga murojaati natijasida yangi-yangi mavzular, eng avvalo, milliy tarix bilan bog'liq voqealar ko'pchilik rassomlarni o'ziga torta boshladi. Tarix bilan bog'liq portret va kompozitsiyalar paydo bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur, ulug' olim Mirzo Ulug'bek, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdilarning tarixiy portretlari uchun tanlovlar e'lon qilindi. Amir Temurning etalon portreti sifatida O'zbekiston xalq rassomi professor Malik Nabiyevning "Amir Temur portreti" asari qabul qilindi.

Malik Nabihev buyuk inson, Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo'lga kiritadi. Temurni ilm, san'at ahillariga homiylik qilgan ma'rifat homiysi ekanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabihev sharqona xarakterga ega bo'lgan Amir Temurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so'nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.

Yana shunday tarixiy shaxslar obrazini yaratish borasida ulug' olim Mirzo Ulug'bek portreti uchun o'tkazilgan tanlov g'olib Akmal Ikromjonov, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdining qiyofasini, ser-qirra ijodkor To'ra Kuryazov tomonidan yaratilgan portretlari ham tarixiy materiallarni chuqur o'rganish, tarixiy dalillarga tayanib, qiyosiy taqqoslash asosida yuzaga kelgan.

Ajoyib mo'yqalam sohibi Javlon Umarbekov asarlarida esa tarixiy shaxslar qiyofasi to'laqonli kompozitsiyalar qamrovida gavdalanadi. Bu o'rinda ayniqsa, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar obrazlarining to'laqonli gavdalanishi diqqatga sazovordir. Keyingi yillardagi asarlarida rassom milliy merosimizga, jumladan amaliy bezak san'atidagi an'analarga e'tiborini kuchaytirdi. U xalq amaliy san'atidagi ramziy belgilar kalitini topish, o'sha siru-asrorlarni bo'yoqlar orqali jonlantirish borasida izlanishlar olib bordi. Rassom Javlon Umarbekov 2002 yilda O'zbekiston Badiiy akadimiyasi Oltin medali bilan mukofotlangan.

Taniqli ser-qirra ijodkorlardan yana biri Bahodir Jalolov-o'zining betakror asarlari bilan kishilar qalibida munosib o'rin olgan ajoyib mo'yqalam sohibidir.



Rassom ijodida olam sirlari o'zgacha talqin etiladi. Bu o'rinda "Gul va Rayhon afsonasi", "Nido" "Baxt qushi", "Abadiy va navqiron Hindiston", "XXI asr madonnasi" kabi ko'plab asarlarini misol keltirish mumkin. Mustaqil O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi devoriga ishlangan monumental ko'rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin tarix sirlariga ega bo'lgan o'zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Umuman, tasviriy san'at asarlarini bir marta ko'rishdayoq to'liq idrok qilib bo'lmaydi. Albatta, uni qayta va yana qayta ko'rish, kuzatish, mushohada qilish tufayli asar kompozitsiyasida ifoda etilgan g'oyalarni yangidan-yangi qirralarini tushunish mumkin. Bahodir Jalolov ijodiyoti shu jihatni bilan qadrlidir. U o'zbek tasviriy san'ati rivojiga astoydil hissa qo'shib kelmoqda.

Mustaqillik yillarda barakali ijod qilgan o'zbek rangtasvir san'atining taniqli vakillaridan biri ustoz G'ofur Abdurahmonovdir. Bu ijodkor faoliyatining mukammal xususiyati shundaki, kompozitsiyalarining keng qamrovliligi, asarlarining hayotiyligi, davr kayfiyati va ruhiyatini har tomonlama ochib bera olishi bilan boshqa mo'yqalam sohiblaridan yaqqol ajralib turadi.

G'. Abdurahmonovning mustaqillik yillarda yaratgan asarlarini, erishgan yutuqlarini takidlاب "SAN'AT" jurnalining 3/2012-sonida "An'analar davomchisi" nomli maqolasida Urimbay Nurtayev shunday yozadi. "2001 yilda G'. Abdurahmonov, V. Akudin, M. Ahmedov, M. Sodiqov, Yu. Chernishev, Ya. Salpinkidi, I. Bahromov, I. Shin, D. Mursalimov singari O'zbekistonning taniqli rassomlari bilan birga "Oqtosh" ijod uyida ijodiy safarda bo'ldi. Uning o'shanda yaratgan Oqtosh vodiysi va tog'cho'qqlari tasvirlangan rangtasvir asarlar turkumida haqiqiy o'ziga xos uslubi namoyon bo'ldi. "Oqtosh. Chashma oqmoqda", "Oqtosh. Tong", "Tun", "Oqtoshda kuz", "Oqtosh. Sukunat" - ushbu kartinalar koloristik gammasi jixatidan ham, kompozitsion tuzilishiga ko'ra ham juda ajoyibdir.

G'. Abdurahmonovning zamonaviy manzaralarida Xumson va G'ilonning tog' cho'qqlari, ilonizi yo'llar, bahorda gullagan bog'lar, kuzgi daraxtlarning oltin rang shox va yaproqlari tasvirlanadi. Ular juda hayotiy aks ettiriliganidan xuddi ko'rib turganday bo'lsan kishi. Ularda ranglar qalashtirib tashlanmagan. Shu boisdan tomoshabinning nigohi go'yo bo'yoqlarning yupqa surtmasidan o'tib, voqeylekning poyonsiz sarhadiga singib ketadi"<sup>20</sup>. G'ofur Abdurahmonov Fransiya, Polsha, Bolgariya kabi xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, bir qancha yutuqlar bilan qaytdi. Xorijda, Mustaqil Mamlakatlar Hamdo'stligining bir qancha shaharlarida bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda rassom asarlarini olqish va qiziqishlar bilan qabul qilishdi. Rassom G'ofur Abdurahmonov 2006 yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasining oltin medali bilan taqdirlandi.

20 "SAN'AT" O'zbekiston badiiy akademiyasi jurnali., 3/ 2012.



Mustaqillik yillarda ijod qilgan ajoyib mo'yqalam sohiblaridan yana biri Javlon Umarbekovdir. Rassomning asarlari bir-birini takrorlamaydi. 1990-1995 yillarda yaratilgan "Gullar", "Natyurmort: Gullar va tikanlar", "Meshkob" "Natyurmort: Idish-tovoq" kabi asarlari shular jumlasidandir. Haqiqatdan ham rassomning issiq tabiatli sharqona bo'yoqlari qamrovi ichidagi rangin asarlarini kuzatar ekansiz o'zbekona ruhni ilg'aysiz. San'atkor rang-barang kompozitsiyalar, portretlar, boy mazmunli manzara va natyurmortlarning muallifidir. Uning ijod namunalarida san'at qiyomiga yetkaziladi, professional go'zallik o'z o'rnini topadi.

Rassom bo'lib go'zallik borasida ijod qilishni yoshligida orzu qilmaydigan inson kam bo'ladi. Ammo, bu soha sirlarini egallab o'z yo'lini topa olish har kimga ham nasib etavermaydi. Tasviriy san'at borasida san'at sirlarini egallab o'z yo'lini topa olgan mo'yqalam sohiblaridan biri Alisher Mirzayevdir. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir. Bu borada, ayniqsa, Germaniya, Bolgariya, Ruminiya, Italiya, Fransiya kabi xorijiy davlatlarda qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarini ta'kidlamoq kerak.

Alisher Mirzayev ona tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lobar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'lgan. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri" triptixi. "Bolaxonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo'shiq" va shular kabi o'nlab asarlari moybo'yoqlarda o'z aksini topdi. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom tasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka yetaklaydi.

Mustaqillik yillari grafika san'ati o'ziga xos texnika va texnologiyalar bilan boyidi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari grafika san'atga bo'lgan talabni o'zgartirib yuborishga sabab bo'ldi. Poligrafiya ishlari sifat jihatidan rivojlandi. Plakat, amaliy grafikada zamonaviy kompyuter o'z o'rnini egalladi. Bu borada grafikaning qalamtasvir va bosma grafikaning gravyura turlari yanada rivoj topdi.

Mustaqillik yillarda haykaltaroshlik san'atini rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Uzoq vaqt sovet ittifoqi davrida tilga olinmagan, taqiqlangan mavzularda ham keng ko'lamda haykallar yaratish ishlari amalga oshirila boshlandi. Dastgoh, monumental, dekorativ va mayda haykaltaroshlikda asarlar yaratildi. Monumental va mayda haykaltaroshlik bu borada yetakchi o'ringa chiqdi. Monumental haykaltaroshlikda tarixiy mavzudagi asarlar realistik uslubda yaratildi. Mustaqillik yillarda maydonlarga haykallar o'rnatish jarayoni shaharlarning qayta qurish va obodonlashtirish ishlari bilan birga uzviy amalga oshirildi. Natijada shaharlarda katta xiyobon va maydonlari o'z ko'rkinib ochdi. Xorazmda "Avesto" bog'i, Termizdagi "Alpomish" haykal majmuasi kabilarni shu o'rinda misol keltirish mumkin.

Atrof-muhitning badiiy boyligi xalq yoki millatning ma'naviy qiyofasini o'ziga xos gavdalinishida mahobatli haykallar alohida o'rinda turadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi respublikamizdagi shaharlarda sayr qilsak ko'plab salobatli haykallarga duch kelamiz. Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Beruniy, Ibn Sino, Hamid Olimjon,



G'afur G'ulom kabi o'zbek xalqining sevimli farzandlarining obrazlari muhrlangan monumental haykallar qad ko'targan.

Monumental haykallarda qonli janglarda halok bo'lgan ota-bobolarimiz qiyofalari ham mukammal ifoda etilgan. Afsonaviy xalq qahramonlari, dostonlardagi Alpomishu Barchin, Farhodu Shirinlarning obrazlari ham o'zgacha talqin qilingan. Xullas, O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati xalqimiz ruhiyatiga mos shaklu shamoyilini topa olgan. Shunday dastlabki haykallardan biri 1993-yili poytaxt Toshkentda uning markaziy xiyobonidan joy olgan buyuk sohibqiron Amir Temurning mahobatli haykalidir. Ushbu mahobatli haykaltaroshlik namunasi Ilhom Jabborov ijodiga mansubdir.

Yangilanish, uyg'onish, ijodiy kamolot sari astoydil harakatlar Ilhom Jabborov ijodiga qanot baxsh etadi. "Haykaltarosh Temur obraziga murojaat qilar ekan, Sohibqiron haqidagi adabiyotlarni, miniatyura tasvirlarni, rassomlarning ishlarini astoydil talqin qilganligini ta'kidlaydi.

- ...Samarqand shahrida bo'lganimda tepamda xuddi ulug' bobomiz ruhi uchib yurganday qalbim larzaga kelgan edi. Samarqandga ikkinchi marta borganimda Zarafshon bo'yida tepalikning ustida shoh ruhi shaharni qo'riqlab turganday ko'z oldimga keldi. Necha asrdan keyin yetib keldim, uchib keldim deyayotganday... Haykalimning g'oyasi ham shu fikr o'ylar, xayolda tug'ilgan obraz asosida shakllandii. Temur 27 davlatga madaniyat olib borgan, zolimlarning dodini bergen, qayerda qo'zg'olon bo'lsa, borib bostirib, tinchitib kelgan. Haykaldagi ot jilovini mahkam ushlab turganining ramziy ma'nosi bor katta bir mamlakatni boshqarib turganday holati ifoda etilgan. Go'yo mamlakatda osoyishtalik, tinchlik gullab-yashnasin, deb turganday g'oya ilgari surilgan"<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan Xalq ta'limi xodimi san'atshunoslik nomzodi Nemat Abdullayev, Ilhom Jabborov tamonidan yaratilgan Amir Temurning mahobatli haykali haqida shunday fiklarni bayon etgan. "Unda uzoq janglardan g'olib qaytgan sarkardani olqishlayotgan xalq oldida ot jilovini tortib to'xtatib, unga baxt-saodat, tinchlik tilagandek qo'llarini yuqoriga ko'targan holda ishlangan. Haykalning tagkursisiga yozilgan "Kuch adolatdadir" hikmati kompozitsiya mazmunini chuqurlashtirib, go'yo buyuk sohibqironning jonli ovozi eshitilayotgandek tuyuladi. Bu haykallar an'anaviy realistik san'atning hikoyanavis yo'nalishida ishlangan bo'lib, ulardag'i har bir chiziq va shakl, hayotiy maishiy buyum va unsurlar asar mazmunini chuqurlashtirishga qaratilgan. Bu asarlar ham uzoq va yaqin idrokka mo'ljallangan. Asarning bunday yechimi tomoshabinga tasvirlanuvchi haykalni uzoq vaqt tomosha qilish va asta u bilan muloqot qilish imkoniyatini tug'diradi"<sup>22</sup>. Mustaqillik yillaridan boshlab Ilhom Jabborov ijodida mahobatli san'at yo'nalishi yetakchilikka chiqib, respublikaning bir qator shahar va qishloqlarida uning loyihasi asosida haykallar o'rnatildi, Toshkentning bosh maydonidagi Ona haykali, Farg'ona va

<sup>21</sup> Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавхалар. Тошкент "Ўқитувчи", нашриёти, 1997., 77-бет



Quvadagi Ahmad al-Farg'oniy me'moriy-haykaltaroshlik majmualari shular jumlasidan.

Mustaqillik yillarda manzara va natyurmort janrida ham rangga boy salmoqli asarlar yaratildi. Rahim Ahmedov, Ne'mat Qo'ziboyev, Akmal Ikromjonov, Anvar Mirsoatov, Ortiqali Qazoqov, Asliddin Isayevlarning manzara va natyurmortlari o'zining his-tuyg'ularga boy xislatlari bilan yangi davr ruhini ifodalaydi.

Mustaqillik yillari miniatyura san'atining haqiqiy rivojlanish davri bo'ldi. Ayniqsa, lokli miniatyura san'ati yuqori darajada rivojlandi. Bu borada Shomahmud Muhammadjonov, G'ayrat Kamolov, Toir Boltaboyev, Xurshid Nazirov, Alisher Yo'ldoshev, Bahodir Yo'ldoshev, Ubaydulla Qosimov kabi rassomlar miniatyura san'atning ajoyib asarlarini yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Bu borada Niyozali Xolmatov akademik unvoniga tuyassar bo'ldi.

Bu davrda realistik san'at yo'nalishi bilan bir qatorda avangard san'ati ham o'ziga yo'l ochib bordi. Akademik san'at yo'nalishida o'z ijodini boshlab katta yutuqlarga erishgan Bahodir Jalolov, Vyacheslav Oxunov, Akmal Nur, Jamol Usmonovlarning avangard san'atidagi ijodi e'tiborga molik. Bu ijodkorlar g'arb akademik san'ati an'analarini chuqur o'rganib shu bilan birgalikda san'atning nodir namunalarini yaratganlar. "90-yillardan keyin avangard san'atida e'tiborga loyiq asarlar yaratib munozaralarga tomoshabinni chorladilar. Ularning ishlarida xayoliy tasavvurlarga burkangan, ramziy assotsiativ shakllar majmuasida sharqona ohangli, falsafiy xayollarga olib ketuvchi murakkab kompozitsiyalar gavdalanadi. Ularning keyingi yillarda yaratgan asarlarida erkin, har qanday pand-nasihat, biror-bir g'oyani asoslash yoki targ'ib qilish emas, balki erkin holda shoirona xayollarga berilish, dunyo va tabiat mo'jizalaridan hayratlanish ko'proq namoyon etiladi. Rang, shakl, ramzlar esa shu xayollarni materiallashtiradi"<sup>23</sup>.

Mustaqillik yillarda badiiy kulolchilik san'ati ham yangi davrini boshladi. Kulolchilik san'ati vakillari Akbar Rahimov, Sharofiddin Yusupov, Xudoyerdi Haqberdiyev, Sharif Azimovlar akademik unvoniga sazovor bo'ldilar. Bu san'atkorlarning har biri o'z asarlarni yaratishda o'ziga xos uslubiga egadirlar.

Bu davrda ayniqsa, amaliy san'atning yog'och o'ymakorligi turlari o'zining haqiqiy rivojlanish davrini kechirdi. Yog'och o'ymakorligining maishiy va monumental yo'nalishlarida ko'plab asarlar yaratildi va yaratib kelinmoqda. Bunyod etilgan me'morchilik majmualarda tarixiy sanalar bilan bog'liq turlarida bu san'at o'ziga xos o'rnini egallab davr ruhiyati bilan boyidi. Bu borada mehnat qilgan xalq ustasi Abdug'ani Abdullayevga O'zbekiston xalq qahramoni unvoni berildi. Mustaqillik yillaridan boshlab barpo etilgan Samarqandda buyuk mutafakkir Al-Buxoriy, Farg'onada munajjim Ahmad al-Farg'oniy, Toshkentda Xotira va qadrlash, Shahidlar xotirasi maydonlaridagi me'moriy majmular, ma'muriy, madaniy binolarda shu san'at

<sup>22</sup> N. Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti", 2007., 208-bet

<sup>23</sup> N. Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti", 2007., 206-bet.



o'zining aksini topdi. Amaliy san'atning kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, chinni san'atida ham davr ruhi bilan sug'orilgan asarlar vujudga keldi.

Mustaqillik yillarida o'zbek me'morchilik san'atining hamma turlari - rivojlna boshladi. Me'morlikchilik jahonning eng yangi texnologiyalari asosida va an'anaviy milliy mumtoz me'moriy san'at namunalari bilan o'zaro uyg'unlashib, yangi me'moriy ko'rinishlar paydo bo'la boshladi. Mustaqillik yillari me'morilik san'atida milliy merosga e'tibor berish o'ziga xos tarzda kuchaya boshladi. O'tgan davrlarda qurilgan me'morchilik binolarda ta'mirlash, qayta qurish va modernizatsiyalash ishlari ham olib borildi. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkentdagi obidalar qayta tiklandi. Ularni tiklashda xalq ustalari jalg etildi. Saqlanib qolgan tarixiy me'morchilik yodgorliklarning tevarak-atroflari obodonlashtirildi. Bunday bunyodkorlik ishlarini olib borilishi ayniqsa, qadimi shaharlar qiyofasini o'zgartirib, ularda yangi davr ruhini aks ettirdi. Tabiat ko'rinishlari bilan yashillikga burkangan bu tarixiy me'morchilik obidalari o'zining yangi umrini o'tay boshladi. Bu binolarning ayrimlarida davr talabi va imkoniyatlaridan kelib chiqib ma'lum mazmunga ega bo'lgan binolarga aylantirildi. Shu tarixiy yodgorliklarda muzey, salon, xalq ustalari ijodi uchun ijodxonalar tashkil etildi. Ta'mirlash va qayta qurish ishlarida bu yodgorliklarning asosiy xususiyatlari, o'tgan davr ruhini o'zida mujassamlashtiruvchi tashqi ko'rinishi to'liq saqlab qolishga e'tibor berilgan. Mustaqillik yillarida respublikaning turli hududlarida katta qurilish ishlar amalga oshirildi. Faxrlanishga arziydigan zamon talablariga mos inshootlar barpo etildi. Jahon andozasiga mos tekis yo'llar qurildi. Keng va yorug' davr ruhiyatiga mos bozor va mehmonxonalar me'morlikning so'nggi andozalarida asosida qad ko'tardi.

Imom al Buxoriy kabi butun umrini iymon va e'tiqod, ilm ma'rifat, diyonat yo'lida baxshida etgan ulug' zotlar xotiralarini e'zozlash, ular nomlari bilan bog'lik joylarni obodonlashtirishga alohida e'tibor berila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 29-apreldagi "Imom al Buxoriy tavalludining hijriy qamariy taqvim bo'yicha 1225-yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida allomaning maqbarasi o'rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi. Bu yodgorlik majmui O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida yaratilgan loyiha asosida

Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan, Qo'qon,

Sahrisabz xalq ustalari tomonidan 1998 yilda qurildi. Yodgorlik majmuyi islom olami va ota bobolarimiz tamonidan qadimdan rivojlanib kelayotgan milliy me'morchilik san'ati asosida bunyod etilib, badiiy bezatilishida milliy amaliy bezak sanati turlaridan o'rinli foydalilanigan. Bugungi kunda Imom al Buxoriyning majmuasi, tashrif buyuruvchi ko'plab mehmonlar uchun tabarruk ziyyaratgohga aylangandir.

Bu davrda barpo etilgan ma'muriy-madaniy binolar san'atkorlar asari bilan badiiy bezatildi. Rassom, haykaltarosh, amaliy san'at ustalari, va me'morlar o'zaro hamkorlikda ishlab san'atning ajoyib namunalarini vujudga keltirdilar. Landshaft arxitekturasi, vitraj, koshinkorlik, kulolchilik, kandakorlik, badiiy shisha san'ati ham



ravnaq topdi. Toshkentdagi Turkiston saroyi, Interkontinental, Sheraton va Meridian mehmonxonalari, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimiyati, Oliy majlis binosi, "Jar" sport majmuasi va Samarqandda "Afrosiyob" mehmonxonasi, Buxoroda "Buxoro" mehmonxonasi va boshqa shaharlarda ham qurilgan shu kabi madaniy va ma'muriy binolari o'zida zamonaviy ko'rinishlarni mujassamlashtirdi. Bugungi davrimizda ayniqsa zamoviy me'morchilik borasida ham yanada misli ko'rilmagan darajada qator yutuqlarga erishilmoqda. O'zbekistonning turli shaharlarida qurilgan va qurilayotgan osmon o'par ko'p qavatli binolar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston san'ati misli ko'rilmagan darajada rivoj topdi. Mafkuraviy nazoratni yo'q qilinishi, ijodiy erkinlik, mo'yqalam sohiblariga katta kuch bag'ishladi. Bu yillarda O'zbekistonda bir qator iste'dodli ijodkorlar tasviri va amaliy san'atning rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar. Ular bebaho yetuk asarlarini nafaqat Vatanimizda, balki butun dunyoga namoish etib kelmoqdalar. Bu davrda me'morchilikdagi bunyodkorlik ishlari muntazam rejalgarda asoslangan holda olib borildi. Zamonaviy binolarning yangi turlari bunyod etildi. Tarixiy shaharlarni tiklab islom madaniyatiga xos mahobatli imoratlar qurildi. Bunday bunyodkorlik ishlari bugungi kunda ham davom ettirilmoqda.

Bu kabi me'morchilik namunalari davr taraqqiyotini ifodalab tinchlik, osoyishtalik, farovonlik va xalqning bunyodkorlikidan va buyuk kelajak sari intilishdan darak beradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. N. Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti", 2007., 202-bet
2. "SAN'AT" O'zbekiston badiiy akademiyasi jurnali., 3/ 2012.
3. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент "Ўқитувчи", нашриёти, 1997., 77-bet
4. Ақбар Ҳакимов. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент "Зилол булоқ" нашриёти, 2022.
5. Sh. Oydinov. Tasviriy san'at tarixi, Samarqand "SamDU Tahririy nashriyot bo'limi bosmaxonasi", 2023.
6. I. U. Izbosarov. Haykaltaroshlik. Samarqand "SamDU" nashriyoti, 2021.
7. Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiattyurasi. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2006.